

BASIC PRINCIPLES OF STATE ADMINISTRATION IN NIZOMULMULK'S "SIYOSATNOMA"

Egamberdiyeva Zulfiya Zafar kizi

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

2nd year student of History

e-mail: zulfiyaegamberdiyeva13@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari asosida davlat boshqaruvi tamoyillari tahlil qilinadi. Asarda adolat, maslahat, markazlashuv va xalq bilan muloqot davlat boshqaruvida asosiy tamoyillar sifatida ko'rsatilib, ularning o'rta asr Islom davlat boshqaruvi tajribasidagi roli ochib beriladi. Maqola Nizomulmulkning siyosiy tafakkuri va boshqaruv nazariyasini o'rganishga qaratilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются принципы государственного управления на основе «Сийосатнамы» Низам-уль-Мулька. В работе определены такие основные принципы государственного управления, как справедливость, консультации, централизация и диалог с народом, а также раскрыта их роль в опыте средневекового исламского государственного управления. Цель статьи — изучение политической мысли и теории управления Низам-уль-Мулька.

Abstract. This article analyzes the principles of state governance based on Nizam-ul-Mulk's "Siyosatnama". The work identifies justice, consultation, centralization, and dialogue with the people as the main principles of state governance, and reveals their role in the experience of medieval Islamic state governance. The article aims to study Nizam-ul-Mulk's political thought and theory of governance.

Kalit so'zlar. Nizomulmulk, Siyosatnoma, davlat boshqaruvi, Saljuqiylar, adolat, maslahat, markazlashuv, siyosiy tafakkur, o'rta asr, xalq bilan muloqot.

Ключевые слова. Низам-уль-Мульк, Политика, государственное управление, Сельджуки, правосудие, консультации, централизация, политическая мысль, Средневековье, диалог с народом.

Keywords. Nizam-ul-Mulk, Policy, public administration, Seljuks, justice, consultation, centralization, political thought, Middle Ages, dialogue with the people.

KIRISH. Davlatchilik shakllangan davrdan boshlab davlat boshqaruvini takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratila boshlangan. Har bir davrda, mintaqada yetuk olimlar, mutafakkirlar davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari va tajribalaridan kelib chiqqan ma'lumotlarni asar sifatida yozib qoldirishgan. Xususan qadimgi yunon olimlari Aristotelning "Siyosat", Platonning "Qonun" va "Davlat" asarlari, Sharqda esa Nizomulmulkning "Siyosatnoma" (XI asr), Amir temurning "Temur tuzuklari" kabi asarlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Ushbu asarlar o'z davri va hududining siyosiy sharoitidan kelib chiqqan holda turlicha yondashuvlarni ifodalaydi. Xususan Nizomulmulk va Amir Temur asarlarida davlat boshqaruvi yakka hokim shaxs faoliyati bilan bog'liq holda, hukmdorning fazilatlarini, bilim va ko'nikmalariga alohida urg'u beriladi.

Nizomulmulk o'rta asr Islom dunyosining eng nufuzli davlat arboblardan biri bo'lib, uning "Siyosatnoma" asari davlat boshqaruvi, siyosiy nazariya va rahbarlik tamoyillarini tizimli ravishda yoritgan muhim manba hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat hukmdorlar va amaldorlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan, balki o'rta asr Islom davlatining siyosiy va ijtimoiy hayotini tushunishda ham asosiy manba sifatida qadrlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Abu Ali al-Xasan ibn Ali ibn Is'hoq at-Tusiy Nizomulmulk (1018-1092) Islom dunyosining eng nufuzli siyosatshunoslaridan biri bo'lib, u o'zining 1091-yilda yozilgan "Siyosatnoma" yoki "Siyar-ul muluk" asari orqali tarixda o'chmas iz qoldirdi.



Mazkur asar faqat tarixiy manba emas, balki davlat boshqaruvi va axloqiy rahbarlik haqidagi amaliy qo'llanmadir.

Farruhjon Tojiddinov o'z tadqiqotlarida takidlaganidek, "Nizomulmulk siyosiy nazariyani amaliy hayot bilan bog'lagan, uning fikricha siyosat faqat nazariya emas, balki tajribaga asoslangan amaliy san'atdir" [1]. Bu jihatdan asar faqat tarixiy manba emas, balki o'z davrining haqiqiy boshqaruv qo'llanmasi sifatida ko'rishimiz mumkin.

Nizomulmulk Saljuqiylar davlatida bosh vazir lavozimida ishlagan bo'lib, davlatni idora qilishda sulton Alp Arslon va Jaloliddin Malikshohga katta yordam bergan[2]. U o'z davrining yirik arbobi sifatida hukmdor va xalq o'rtasida muvozanatni saqlashni o'zining bosh tamoyili deb biladi.

Muallif fikricha davlat boshqaruvidagi eng muhim narsa – adolatdir. Agar adolat bo'lmasa zulm ko'payadi va davlat zaiflashadi[3]. Hukmdorning adolatli bo'lishi davlat boshqaruvini mustahkamlaydi, xalqning sodiqligini oshiradi. "Siyosatnoma"da hukmdorlar uchun yozilgan nasihatlarining asosiy qismi xalqni tinch va farovon yashashini ta'minlash, xalq bilan muloqot, mazlumlar, kambag'allarni qo'llab quvvatlash va zulimni yo'qotishga qaratilgan[4].

Siyosatnomada markazlashgan boshqaruv tizimi ham muhim element sifatida ko'rsatiladi. Hukmdor hokimiyatining yagona markazdan boshqarilishi davlat ichida tartib va intizomni mustahkamlashga yordam beradi. Kitobda shaffof boshqaruv, korrupsiyaga qarshi kurash va adolatli qarorlar davlat boshqaruvining mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi[5].

Nizomulmulk davlat ishlariga ma'suliyatli va mohirona yondashgan. Sulton Malikshoh davrida davlatning ichki va tashqi ishlarini shaxsan o'zi nazorat qilgan. U o'z asari avvalida davlat boshqaruvi jarayonlarida yuz beradigan tartibsizliklarni oldini olish maqsadida sultonning yaqin do'stlari idora ishlariga aralashmasligi aytilgan.

Shuningdek, sultonning ishlari yashirin bo'lib, xalqni noroziligiga sabab bo'lmasligi uchun shahar, qishloq va davlatning eng chekka hududlarida o'zining xos vakillarini savdogar, sayyoh, sufiy va dori sotuvchi sifatida tayinlab, qozixonalar, muxtasiblar hamda boshqa davlat xizmatchilar ishlarini doimiy nazorat qilib turgan[6].

Asarda shuningdek, xalq farovonligi va ijtimoiy barqarorlik masalasi ham alohida e'tiborda. Hukmdorlar tomonidan xalqning ehtiyojlari va ijtimoiy holati doimiy nazorat qilinishi, soliqlar adolatli va xalqqa ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydigan tarzda joriy etilishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ichki xavfsizlik va tartibni saqlash orqali davlatning barqarorligi va mustahkamligi kafolatlanadi.[7].

Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari adolat, maslahat, markazlashuv, xalq bilan muloqot va amaldor axloqi tamoyillari orqali davlat boshqaruvining asosiy printsiplarini aniq va tizimli tarzda yoritadi. Ushbu tamoyillar o'rta asr Islom davlatlarining siyosiy barqarorligi va xalq farovonligi uchun muhim vosita bo'lgan.

XULOSA. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asari o'rta asr Islom dunyosida davlat boshqaruvi nazariyasi va amaliyotini tizimli ravishda yorituvchi muhim manba sifatida qadrlanadi. Ushbu asar hukmdorlar va amaldorlar uchun amaliy qo'llanma bo'lib, davlatni samarali boshqarishning asosiy tamoyillarini ochib beradi. Asarda adolat, maslahat, markazlashuv, xalq bilan muloqot va amaldorlarning axloqi kabi prinsiplarga alohida e'tibor qaratilgan.

Adolat tamoyili hukmdorning boshqaruvi barqarorligi, xalqning sodiqligi va ijtimoiy tuzilishning sog'lom ishlashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Maslahat prinsipi esa qaror qabul qilish jarayonini bilimli va ongli tarzda tashkil etishga yordam beradi. Nizomulmulk markazlashgan boshqaruv tizimi orqali davlat ichidagi tartib-intizom va hokimiyat birligini ta'minlashni maqsad qilgan. Shu bilan birga, xalqning farovonligi va ehtiyojlarini inobatga olish, soliqlarni adolatli belgilash ham davlat barqarorligining muhim omillari sifatida ko'rsatiladi.

Siyosatnomada amaldorlarning vazifalari va axloqi ham alohida yoritilgan. Poklik, halollik va imyonli xizmat davlat boshqaruvining samaradorligini ta'minlaydi va korrupsiya, mansab



poraxo‘rligiga qarshi barqaror tizim yaratadi. Bundan tashqari, ichki xavfsizlik va tartibni saqlash orqali davlatning barqarorligi mustahkamlanadi.

Shu sababli, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asari nafaqat o‘rta asr saljuqiylar saltanati uchun, balki zamonaviy siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi sohasida ham dolzarb ahamiyatga ega. Asar davlat boshqaruvi tamoyillarining tarixiy ildizini ochib berib, ularni amalda qanday tatbiq etish mumkinligini ko‘rsatadi. Adolat, maslahat, markazlashuv va xalq bilan muloqot tamoyillari orqali Nizomulmulk davlat boshqaruvining samarali va barqaror tizimini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Umuman olganda, “Siyosatnoma” – bu hukmdorlar uchun strategik qo‘llanma, amaldorlar uchun axloqiy yo‘l-yo‘riq va davlat boshqaruvi nazariyasi uchun beqiyos ilmiy manba bo‘lib, tarixiy va zamonaviy boshqaruv amaliyotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Tojiddinov F. K. Nizomulmulk siyosiy tafakkuri va o‘rta asr musulmon boshqaruv tizimlari. Samarqand davlat universiteti ilmiy to‘plami, 2021. 1-19-b.
2. Nizomulmulk, “Siyosatnoma”- Toshkent: “Yoshlar matbuoti” 2023. [2-7-b.], [3-19-b], [4-93-b.], [6-93-b],
3. The Book of Government or Rules for Kings. The Siyar al-Muluk or Siyosatnama Of NIZAM AL-MULK. Translated from the Persian by Hubert Darke. London. 7- 60-b.
4. www.dailysabah.com/arts/nizam-al-mulk-greatest-statesmen-of-islamic-turkishworld/news
5. Süleyman Göksoy Ethical principles in Nizam Al-Mulk’s Siyosatnama book in terms of Turkish management history. //Journal of Pedagogical Research, 1(1)
6. Hassan, R. Nizam al-Mulk and the Political Ethics of Governance in the Medieval Islamic World. – International Studies in History, Vol. 1, No. 42, 2022.
7. Rahimova, D. “Siyosatnoma” asarida rahbarlik psixologiyasi va ijtimoiy mas’uliyat talqini. – Sharqshunoslik va Falsafa jurnali, 2023

